

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**IZZATILLAYEV PARVIZ INOYATILLAYEVICH**

**ERON NAVOIYSHUNOSLIGI: TADQIQ, TALQIN VA TARJIMA**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

<b>Izzatillayev Parviz Inoyatillayevich</b> Eron navoiyshunosligi: tadqiq, talqin va tarjima.....	3
<b>Иззатиллаев Парвиз Иноятиллаевич</b> Навоиведение Ирана: исследование, интерпретация и перевод .....	27
<b>Izzatillaev Parviz Inoyatillaevich</b> Iranian Navo'i studies: research, interpretation and translation .....	53
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	58

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**IZZATILLAYEV PARVIZ INOYATILLAYEVICH**

**ERON NAVOIYSHUNOSLIGI: TADQIQ, TALQIN VA TARJIMA**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil525 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<http://www.tsuull.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Musurmonov Erkin Rabbimovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
	<b>To'xsanov Qahramon Raximboyevich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi</b>

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_da tarqatildi.  
(2023 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.Z.Normurodova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., dotsent

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

**D.R.Yusupova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi  
filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida xalqlararo adabiy aloqalarni o‘zaro ta’sir aspektida tadqiq etish XXI asr globallashuv davrida har qachongidan dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi. Zotan, muayyan bir xalqning boshqa xalqlar orasida tanilishi, eng avvalo, o‘sha xalq badiiy adabiyotining tarjima orqali turli xalqlar madaniy qatlamiga singishi bilan bevosita bog‘liqdir. Musulmon Sharqi ilmiy doiralarida o‘zbek adabiyoti va uning buyuk namoyandalari ijodiga qiziqish uzoq tarixga ega. Xususan, o‘zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy hayoti va faoliyati, ilmiy-adabiy merosi asrlar davomida Eron, Turkiya, Ozarbayjon, Hindiston, Rossiya, Vengriya, Germaniya, Angliya sharqshunoslarining diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan. Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi masalasini tadqiq etish ulug‘ shoirning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasi, uning bashariyat sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarining Eronda o‘rganilishi va fors tilidagi tarjimalarining badiiy saviyasini tadqiq etish mavzuning zaruriyligi va dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida “navoiyshunoslik” yo‘nalishi asos-e’tibori bilan XIX asr oxirlarida shakllandi. Rossiya navoiyshunoslik maktabida olib borilgan tadqiqot ishlari keyingi asrda G‘arbiy Yevropada Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Sharq mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston va boshqa turkiy tilli davlatlarda Navoiy ijodini keng o‘rganish ishlari boshlandi. Shu qatorda Tojikiston va Eron singari davlatlarda ham navoiyshunoslik maktablari vujudga keldi.

O‘zbekiston bugungi davrda navoiyshunoslikning jahoniy markazi sifatida e’tirof etilmoqda. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha XX asrning 20-yillarida shakllangan alohida ilmiy yo‘nalish zamonamizga kelib o‘zining yuqori rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. O‘zbek navoiyshunoslari to‘liq to‘plagan ulug‘ shoir ilmiy-adabiy merosi xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlarga manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuning barobarida o‘zbek olimlari tomonidan Navoiy asarlarining xorij o‘lkalarida o‘rganilish masalasi ham tadqiq etilayotgani adabiy aloqalarning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash hamda Alisher Navoiyning milliy adabiyotlarga ko‘rsatgan ta’siri darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy ijodining Eronda tadqiq qilinishi va asarlarining fors tiliga tarjima qilinishi muammosi kompleks tarzda o‘rganilgani yo‘q. Holbuki, XX asrning 2-yarmidan bugungi davrgacha Eronda navoiyshunoslik alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllanib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Shu nuqtayi nazardan Eron navoiyshunosligi maktabini o‘rganish, amalga oshirilgan tarjimalar bo‘yicha qiyosiy tadqiqot olib borish o‘zbek navoiyshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-

yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2021-yil 4-fevraldagi PQ-4977-son “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorij mamlakatlarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish XX asr boshlaridan e‘tiboran kuchayganini qayd etish o‘rinli.

Rus olimlaridan Y.E.Bertels<sup>1</sup>, V.V.Bartold<sup>2</sup>, A.N.Kononov<sup>3</sup>, A.K.Borovkov<sup>4</sup>, A.A.Semyonov<sup>5</sup>, A.N.Boldirev<sup>6</sup>, A.Y.Yakubovskiy<sup>7</sup>, N.I.Konrad<sup>8</sup>, M.Nikitskiy<sup>9</sup>, V. M. Jirmunskiy<sup>10</sup> kabi olimlarning Alisher Navoiy hayoti va ijodi borasida olib borgan ishlari diqqatga sazovor. Tojik olimlaridan S. Ayniy<sup>11</sup>, A. Mirzoyev<sup>12</sup>, A.Afsahzod<sup>13</sup>, R.Musulmonqulov<sup>14</sup>, E.Shodiyevlar<sup>15</sup> Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga katta hissa qo‘shdilar. Turkman olimlaridan B.Qarriyev, M.Kosayev, K.Borjaqova, K.Og‘aliyev, ozarbayjon olimlaridan H.Orasli, J.Nag‘iyevalarning xizmatlari

---

<sup>1</sup> Е.Э.Бертельс. Навои. Избранные труды. Навои и Джамии. – Москва: Наука, 1965.

<sup>2</sup> В.В.Бартольд. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин. в XI томах. – М.: Наука, 1964. Т. II. Ч.2.

<sup>3</sup> Возлюблённый сердце (Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб)/ Сводный текст А. Н. Кононова; отв. ред. С. Е. Малов. – М.-Л., 1948.

<sup>4</sup> А.К.Боровков. Изучение жизни и творчество Алишера Навои. Сб. Родоначальник узбекской литературы. Ташкент, 1940; Навои и Джамии в народном предании. Известия Ан ССР. Отделение литературы и языка, 1947, том. VI, выпуск 6.

<sup>5</sup> А.А.Семёнов. Персидская новелла о Мир-Алишере Навои, Бюллетень Среднеазиатского Государственного Университета, выпуск, 13, 1926; Описание рукописей произведений Навои. Гостехиздат УзССР, Тошкент: 1940; Взаимоотношения Алишера Навои и Султан Хусейна Мирзы, в кн.: «Исследование по истории культуры народов Востока», М. – Л., Изд-во Ан СССР, 1960.

<sup>6</sup> А.Н.Болдырев. Алишер Навои в рассказах современников. Сб. Алишер Навои. Изд. АН СССР, М. – Л. – 1946.

<sup>7</sup> А.Ю.Якубовский. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои, в сб. “Алишер Навои”, М. – Л., Изд-во Ан СССР, 1946.

<sup>8</sup> Н.И.Конрад. Средневосточное Возрождение и Алишер Навои. “Запад и Восток”, М., 1972.

<sup>9</sup> М.Никитский. Эмир Низом Эд-Дин Али Шир в государственном и литературном его значении. СПб., 1856.

<sup>10</sup> В.М.Жирмунский. Алишер Навои и проблема Ринессанса в литературах Востока. “Литература эпохи Возрождения и проблемы всемирной литературы”. М., 1967.

<sup>11</sup> С.Айни. Алишер Навои. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1948; А. Навоий. Танланган илмий асарлар, Тошкент, 1978.

<sup>12</sup> А. Мирзоев. Абдурахмони Чомӣ ва чараёни зиндагии ӯ. Сездах мақола. Душанбе, Ирфон, 1977.

<sup>13</sup> А. Афсаҳзод. Дар сафи бузургон. – Душанбе: Ирфон, 1986; Лирика Абд ар-рахмон Джамии. – М.: Наука, 1988.

<sup>14</sup> Р. Мусулмонқулов. Навоий ва Атоуллоҳ муносабатлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №1. – Б.49-55.

<sup>15</sup> Э.Шодиев. Навоий ва Ҳотифий // Алишер Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент, 1968. – Б. 75-77.

beqiyos. Turk olimlari Z.V.To'g'on, M.F.Ko'prulu, O.S.Lavand, K.Eraslonlar tomonidan qator muhim ilmiy tadqiqotlari amalga oshirilgan.

Yaponiyalik professor Kazauki Kubo, avstriyalik Bert Fragner, amerikalik Nikolas Vomsl, fransuz olimlari Alexandr Papas, Mark Toutant, turk olimi Yusuf Chetindog', pokistonlik tadqiqotchi So'g'robonu Shigufta va boshqalar Alisher Navoiy ijodining turli qirralarini o'rgananganlar.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodi Eronda Ali Asg'ar Hikmat<sup>16</sup>, Zabihullo Safo<sup>17</sup>, Rukniddin Humoyun Farrux<sup>18</sup>, Said Nafisiy<sup>19</sup>, Mahdi Farhoni Munfarid<sup>20</sup>, Bahman Akbariy<sup>21</sup>, Muhammadzoda Siddiq<sup>22</sup>, Ne'mati Limoiy<sup>23</sup>, Hodi Bidakiy<sup>24</sup>, Pravizbegi Habibobodiy<sup>25</sup>, Sayid Ehson Shukrxudoiy<sup>26</sup> kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy ijodining xorij mamlakatlarida o'rganilishi bo'yicha U.Satimov<sup>27</sup>, G.Xalliyevalarning<sup>28</sup> ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Mumtoz adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" va "Sharq va o'zbek adabiy aloqalari" mavzulari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Eron navoiyshunosligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, Eron tarjimonlari tomonidan Alisher Navoiyning fors tiliga tarjima qilingan asarlari namunalarini qiyosiy adabiyotshunoslik rakursida ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Eron navoiyshunosligining shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlarini mavjud adabiy manbalar asosida yoritish va Eronda navoiyshunoslikning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asoslab berish;

16 امير عليشير نوايي، مجالس النفايس، به كوشش على اصغر حكمت، منوچهری، تهران 1323؛ تحقیقات در باب زندگانی و آثار و اهمیت ادبی میر نظام الدین علیشیر نوايي، تهران: انجمن روابط فرهنگی ایران و شوروی، 1326.

17 ذبیح الله صفا، تاریخ ادبیات در ایران، ج 2 و 4، ج 8، تهران: فردوسی، 1378.

18 امير عليشير نوايي، دیوان امير نظام الدین علیشیر نوايي. به اهتمام رکن الدین همایون فرخ. تهران: اساطیر، 1375.

19 سعید نفیسی، تاریخ نظم و نثر در ایران. ج 1، تهران: فروغی، 1344.

20 امير عليشير نوايي، خمسه المتحیرین، ترجمه محمد نجوانی، به كوشش مهدی فرهانی مفرد، تهران: فرهنگستان زبان و ادب فارسی، ضمیمه شماره 12 نامه فرهنگستان، 1381.

21 امير عليشير نوايي، علیشیر. نظم الجواهر نوايي. ترجمه ی سیومه غنی آوا و بهمن اکبری. تهران: الهدی، 1387.

22 امير عليشير نوايي. محاکمت اللغتين، به مقدمه، تصحیح و تحشیه حسین محمد زاده صدیق، تبریز: اختر، 1387؛ میزان الاوزان، ترجمه و تصحیح حسین محمزه صدیق، تهران: تکرخت، 1393؛

23 امير نعمتی لیمایی، بررسی زندگی سیاسی و واکاوی کارنامه علمی، فرهنگی، اجتماعی و اقتصادی امیر علیشیر نوايي، تهران: وزارت امور خارجه، اداره نشر، 1393؛ مناجات امیر علیشیر نوايي، ترجمه، مقدمه، توضیح و تحشیه امیر نعمتی لیمایی، تهران: جنگل، 1396؛ مفردات در فن معما، به مقدمه، تصحیح و تحشیه امیر نعمتی لیمایی، تهران، 1393؛ سته ضروریه و فصول اربعه، با مقدمه، تصحیح، توضیح و تحشیه امیر نعمتی لیمایی، تهران: لوگوس، 1399.

24 سید احسان شکرخدايي. گزیده دیوان های ترکی امیر علیشیر نوايي، مقدمات و نظرات علمی دکتر حسین محمدزاده صدیق، تهران: تکرخت، 1494.

25 پرویز بیگی حبیب آبادی، تاملی در تذکره مجالس النفايس، تهران: امیر کبیر، 1388.

26 سید احسان شکرخدايي، گزیده دیوان های ترکی امیر علیشیر نوايي، گردآورنده آگاه سرزی لوند، مقدمه و نظرات علمی دکتر م. صدیق، تهران: تکرخت، 1394.

27 У.Сатимов. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении. Дисс.док.фил.наук. – Москва, 1996.

28 Г.Халлиева. XX аср рус шарқшунослигида ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи. Фил.фан.док.дисс. – Тошкент, 2016.

Alisher Navoiy asarlarini fors tiliga tarjima qilish ishlari tarixini yoritish, “Latoyifnoma” va “Hasht bihisht” asarlarining turkiy “Majolis un-nafois” asari bilan qiyosiy o‘rganish va tarjimadagi adekvatlik masalasini ko‘rib chiqish, tarjimalarda uchragan qo‘shimchalarni izohlab, sharhlash hamda bahsli o‘rinlarni aniqlash;

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Mezon ul-avzon” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarining o‘rganilish tarixini tadqiq etish orqali mazkur ikki asarning tarjimalari, eronlik olimlarning ushbu ikki asarga bo‘lgan munosabatiga doir yangi faktik ma’lumotlarni taqdim etish;

“Mezon ul-avzon” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarining fors tiliga amalga oshirilgan tarjimalarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish va shuning barobarida tarjimonlarning asarni tarjima qilish jarayonida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari hamda yutuqlarini ko‘rsatib berish.

**Tadqiqotning obyektini** Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlari va ularning fors tilidagi tarjimalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Faxriy Hiraviyning “Latoyifnoma”, Qazviniyning “Hasht bihisht”, Muhammadzoda Siddiqning “Mezon ul-avzon” va Turxon Ganjaviyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” tarjima asarlarida tarjimon mahorati, yondashuv va uslublarini tavsif hamda tadqiq etish tashkil yetadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kompleks tahlil, matn tarixi va tahlili usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Eron navoiyshunosligining ilk davrida fors tiliga o‘girilgan “Majolis un-nafois” tazkirasining Eron adabiy muhitida tutgan o‘rni va ahamiyati manbalar asosida dalillangan hamda tazkiraning tarjima variantlari original matn bilan qiyosan tekshirilib, tarjima variantlar va original turkiy matndagi tafovut va ixtiloflar hamda tarjima variantlardagi o‘zaro nomuvofiqliklar va farqli jihatlar aniqlangan;

Eron navoiyshunosligida shoir asarlarining tarjima an‘analari davom ettirilib, tarjimonlarning tarjima ishidagi yondashuvlari, asl nusxalarning nozik individual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan asrashga sa’y-harakat qilganligi, asarlarning asli asosida tarjima matnini yaratishga kirishganligi ochib berilgan;

Eronda navoiyshunoslikning zamonaviy davriga kelib, Alisher Navoiy asarlarining tarjima variantlari bilan bir qatorda uning turkiy tildagi asarlariga ham keng murojaat qilina boshlanganligi, bu davrga kelib shoirning “Mezon ul-avzon” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarining forsiy tarjimasi yaratilib, ilmiy tadqiqot obyektiga aylanganligi isbotlangan;

Eron navoiyshunosligining zamonaviy davrida buyuk mutafakkir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishga kirishilganligi hamda olimlarning har ikki asarni turli qo‘lyozma variantlar bilan o‘zaro qiyosiy tekshirishlari natijasida, mazkur ilmiy-tanqidiy matnlarning tuzilganligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

XVI asrdan XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan Eron navoiyshunosligining shakllanishi tarixi, tadrijiy taraqqiyot yo‘li hamda boshqa bosqichlar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini oydinlashtirilgan;



XX asrning 50-yillaridan XXI asrgacha bo'lgan davrda Eronda "navoiyshunoslik maktablari"ning vujudga kelishi bilan bog'liq jarayonlar, ushbu maktablarning namoyandalari sanalgan eronlik navoiyshunoslar, ularning navoiyshunoslik ilmiga qo'shgan hissalarini, hayoti hamda faoliyati xususidagi yangi ma'lumotlar aniqlangan;

XXI asr Eron navoiyshunosligining undan avvalgi bosqichlardan farqli jihatlari, ushbu davrda navoiyshunoslikning rivojlanish tendensiyalari, yutuq va kamchiliklari ilmiy jihatdan dalillangan;

"Majolis un-nafois" tazkisasi uning forsiy tarjimalari – "Latoyifnoma" va "Hasht bihisht" asarlari bilan qiyosiy o'rganilib, tarjimonlarning yutuqlari ishonchli misollar bilan isbotlangan;

"Mezon ul-avzon" hamda "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarining fors tiliga qilingan tarjimalarini asliyat bilan qiyosiy tahlil qilish orqali tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik mezonlari asosida har bir asar tarjima matni va tiliga doir yutuq va kamchiliklar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodiga oid tadqiqotlarning ilmiy manbalar asosida sharhlanganligi, tadqiqotda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Alisher Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalari, Eron Islom Respublikasining "Majlis", "Malik" va "Ostoni Quds Razaviy" kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalariga suyanilgani, shuningdek, ishda birlamchi manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materillar to'liq qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida ko'rib chiqilgani, yondosh va asosiy manbalar asosida dalillangani, amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, o'zbek adabiyoti tarixi hamda adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda, Eronda navoiyshunoslikning shakllanish bosqichlari, tadrijiy taraqqiyoti, Alisher Navoiy asarlarining tarjima qilinishi va tarjima an'analari hamda novatorlik masalalarini o'rganishda, shoir asarlarining original matni va tarjimalarini tadqiq etish, shuningdek, ularni o'zaro qiyoslash, ekvivalentlik va adekvatlik kabi masalalarni yoritishda muhim o'rin tutishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati navoiyshunoslik, xususan, o'zbek va fors mumtoz adabiyoti tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda, monografiyalar, oliy o'quv yurti talabalari, litsey va maktab o'quvchilari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yozishda, ma'ruza hamda seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish, fakultativ darslar va maxsus kurslar ishlab chiqish, mazkur fanlar mazmunini boyitish va takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Eron navoiyshunosligi: tadqiq, talqin va tarjima tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mumtoz o'zbek adabiyotida ijtimoiy hodisalarning badiiy ifodasi, janrlarning mavzu ko'lami, adabiyot va milliy o'zlikni anglash masalalari Alisher Navoiy hayoti va faoliyati misolida dalillanganligi, jahon ilm-fani kesimida yangi "Navoiyshunoslik" ilmining paydo bo'lishi, shoir hayoti va ijodiy merosining

Eronda tarjima, tadqiq va tahlil qilinishi, eronlik olimlar tarjimasidagi shoir asarlarida originallik va adekvatlik masalalarining aks etishi hamda qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida tahlil etish, daho shoir asarlarining tarjima qilinishi natijasida nafaqat turkiy xalqlar adabiyotshunosligi, balki jahon adabiyoti tadqiqi rivojiga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri davr adabiy mezonlari zahirida asoslanganiga doir ilmiy-nazariy xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi OT-F1-030-raqamli fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 23-yanvardagi 01/4-134-son ma’lumotnomasi). Natijada, jahon navoiyshunosligining taraqqiyot tendensiyalari, xususan, Eronda Alisher Navoiy asarlarini tarjima, tadqiq va nashr etish bilan bog‘liq yangi faktlar ilmiy istifodaga olib kirilgan;

Dunyo navoiyshunosligi kesimida Eronda Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish, tadqiq, tahlil va talqin qilinishi, qolaversa, Eron navoiyshunosligining shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlarining mavjud manbalar asosida yoritilishi va ushbu bosqichlarning ilmiy asoslab berilishi, Alisher Navoiy asarlariga bo‘lgan e’tibor va qiziqishning kuchayishi natijasida shoir asarlarining fors tilidagi tarjima variantlarining yaratilishi hamda uning qalamiga mansub asarlarning tarjima va original matnlar asosida tadqiq etilishi, tarjima va asliyatdagi matnlarning o‘zaro qiyoslanishi natijasida tarjima variantlarda aniqlangan yutuq va kamchiliklarning ilmiy dalillangan xulosalar asosida isbotlab berilishi, ulug‘ mutafakkir asarlariga Eronda munosabat, xususan, olimlarning Alisher Navoiy asarlariga yondashuvlariga oid yangiliklarning ilk bor ilmiy muomalaga kiritilishi, umuman olganda, Eron navoiyshunosligining o‘tmishi va bugungi holatiga oid yangi ilmiy ma’lumot va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan “Navoiyshunoslik tarixi (XX-XXI asrlar)” mavzusidagi amaliy loyihaning o‘zbek navoiyshunoslari antologiyasi qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 23-yanvardagi 01/4-133-son ma’lumotnomasi). Natijada, dunyo navoiyshunosligi kesimida shakllanib, taraqqiy etayotgan Eron navoiyshunosligiga oid yangi faktlar ilk bor ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etilgan va antologiya zamonaviy navoiyshunoslik tendensiyalariga oid yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shundan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 156 sahifani tashkil yetadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Eron navoiyshunosligining tadrijiy taraqqiyoti”** deb nomlangan dastlabki bobi 2 fasldan iborat. Bobning *“Eron navoiyshunosligining shakllanish asoslari”* deb nomlangan birinchi faslida Eronda navoiyshunoslikning qay sharoitda vujudga kelishi va qaysi bosqichlar asosida rivojlanib borishi to'g'risida fikr yuritilgan.

Shuhrat Sirojiddinov *“Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili”* asarida navoiyshunoslik taraqqiyotini shartli ravishda 3 bosqichga bo'ladi<sup>29</sup>. O'z o'rnida, biz ham Eronda navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda 3 bosqichga ajratdik:

**Birinchi bosqich** XVI asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda Alisher Navoiy qalamiga mansub *“Majolis un-nafois”* tazkirasining Faxriy Hiraviy, Hakimshoh Qazviniy, Shayxzoda Foyiz Nimardoniy, Shoh Ismoil bin Abdulaliy va Mirzo Abdulboqiy Sharif Razaviylar tomonidan fors tiliga tarjima qilinishi Eronda navoiyshunoslikning ilm tarmog'i sifatida shakllanishiga turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tazkirada turkiy xalqlar shoirlari bilan bir qatorda ko'plab forsiy xalqlar shoirlari hayoti va ijodi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlarning keltirilishi XVI asrning boshlaridanoq bu asarga bo'lgan qiziqishning ortishiga olib keldi. Yuqoridagi omillar sabab mazkur asar fors tiliga besh marotaba tarjima qilindi.

*“Majolis un-nafois”* tazkisasi ilk marotaba shoh Tohmasbning saroy shoiri **Faxriy Hiraviy** tomonidan milodiy 1521-1522 yillarda Hirotda *“Majolis un-nafois”* asari yozilganidan 32 yil o'tib, turkiy tildan fors tiliga o'girildi va *“Latoyifnoma”* sifatida shuhrat qozondi. Hiraviy o'z tarjimasini Safaviylar sulolasining asoschisi shoh Ismoilga, uning ikkinchi o'g'li Som mirzoning amir ul-umarosi Durmishxon Shomlu va vazir Karimiddin Habibulloh Sovajiyga, oxirgi bobini esa Ismoilshohning vaziri Mirzoshoh Husaynga bag'ishlaydi.

Ikkinchi tarjima bevosita Hakimshoh Qazviniy ismi bilan bog'liqdir. Qazviniy oradan deyarli ikki yillik farq bilan, ya'ni 1522-1523-yillar davomida o'z zamondoshi Faxriy Hiraviyning tarjimasidan bexabar holda *“Majolis un-nafois”*ning ikkinchi forsiy tarjimasini amalga oshirdi. Qazviniy Faxriydan farqli ravishda tazkiradagi *“majlis”*larni *“bihisht”*lar ko'rinishida tarjima qildi. Qiziqarli tomoni shundaki, Qazviniy tarjimasini sifatida tanilgan *“Hasht bihisht”* Safaviy hukmdorlarining ashaddiy raqibi sanalgan *“Usmoniy”*lar hukmdori Sulton Salimxonga bag'ishlangan.

---

<sup>29</sup> С.Сирожиддинов. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. Тошкент: “Академнашр”, 2011.

Tadqiqotlar “Majolis un-nafois”ning yuqorida tilga olingan har ikki tarjimasini ham original tekst, ya’ni turkiy matndan biroz yiroqlashganligini ko‘rsatdi. Ushbu turfaxilliklar ba’zan boblarning qisqartirilishi, boblarda original turkiy matndan farqli ravishda tarixiy shaxs nomlarining tashlab ketilishi, shuningdek, asosiy sakkiz bobga qo‘shimcha ravishda yangi boblarning kiritilishida ko‘zga tashlanadi.

“Majolis un-nafois” tazkirasining fors tilidagi uchinchi tarjimoni **Shayxzoda Foyiz Nimardoni**dir. Foyiz Nimardoniyaning hayoti va ijodi borasida mavjud tarixiy asarlar va tazkiralardan ma’lumot topilmadi. Ammo shunisi ma’lumki, u “Majolis un-nafois” asari tarjimasini 1553 yilda amalga oshirgan. Gulchin Maoniyning Sayid Muhammad Shahob Tohiriy nusxasi asosida bergan ma’lumotidan “Foyiz Nimardoni bu asarning “majlis”larini “hadiqa”lar qolibida tarjima qilib, unga o‘zi mustaqil ravishda sakkizingchi hadiqani qo‘shib, asarni bir butunlikda “Hasht hadiqa”, ya’ni “Sakkiz guliston” deya nomlaydi” deya xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Undan bugungacha faqatgina bir qo‘lyozma nusxa ma’lum bo‘lib, Soriydagi Sayyid Muhammad Tohiriy Shahob shaxsiy kutubxonasida saqlanib kelinmoqda<sup>30</sup>.

Shayxzodadan keyin 1598 yilda **Shoh Ismoil bin Abdulaliy** bu asarni Nishopurda fors tiliga o‘giradi va undan ham faqat bir qo‘lyozma ma’lum bo‘lib, Britaniya muzeyida saqlanib kelinmoqda.

Gulchin Maoniy bu asarning Shohali tomonidan tarjima qilinishini muallif tilidan shunday hikoya qiladi:

*“Fors tilini kitobat va takallumda, xususan Dinmuhammad davrida turkiy tilga nisbatan avlo ko‘rar edilar. Shuning uchun ba’zi bir do‘stlarning iltimosiga ko‘ra Amir Alisherning “Tazkirat ush-shuaro”sini [bu erda “Majolis un-nafois tazkirasini nazarda tutilgan”] fors tiliga o‘giradi.”<sup>31</sup>*

Mazkur tarjima “Yetti majlis”dan iborat bo‘lib, oxirgi majlis tarjimasini tugallanmay qolgan.

Va nihoyat so‘nggi tarjima Gilpoygon shahrining vaziri Mirzo Muhammad Shafe‘xonning o‘g‘li, “Vafo” taxallusi bilan nom qozongan **Mirzo Abdulboqiy Sharif Razaviy** tomonidan XIX asrning o‘rtalarida amalga oshirilgan bo‘lib, undan ham bir qo‘lyozma nusxa Kalkuttadagi madrasaning kutubxonasida saqlanib kelinmoqda<sup>32</sup>. Gulchin Maoniy uning sharhi holi haqida Gulzori A‘zam asariga tayanib, asarining qo‘lyozma nusxasi borasida esa Ch. Riyo ma’lumotiga asoslanib, ma’lumot bergan.

Eron navoiyshunosligining **ikkinchi bosqichi** XX asrning 50-yillaridan XXI asrgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi. Bu davr, Eronda ilmiy navoiyshunoslikning shakllanish davri bo‘lganligi bilan xarakterlidir. Mazkur davr navoiyshunoslari sifatida Ali Asg‘ar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux, Muhammad Naxjuvoni, Mahdi Farhoni, Munfarid kabi navoiyshunoslarni sanab o‘tish joiz. Mazkur bosqich Alisher Navoiy asarlarning nashr etilishi, shuningdek,

هادی بیبکی، 2015، ضرورت تصحیح انتقادی لطایف‌نامه فخری هروی، مجله تاریخ ادبیات، شماره 3، ص 77. <sup>30</sup>

گلچین معانی، احمد. 1363. تاریخ تذکره های فارسی. تهران: کتابخانه سنایی، ص 126. <sup>31</sup>

<sup>32</sup> O‘sha joyda.

turli mualliflar tomonidan shoir qalamiga mansub boshqa asarlarning tarjima va tadqiq etilishi bilan bog‘liq jarayonlarda o‘z ifodasini topadi.

Alisher Navoiy ijodining eronlik olimlar tomonidan o‘rganilishi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avval **Ali Asg‘ar Hikmat**ning samarali tadqiqotlarini qayd etish joiz.

Ali Asg‘ar Hikmat 1945-yilda Faxriy Hiraviy (Latoyifnoma) va Hakimshoh Qazviniyning (Hasht bihisht) Alisher Navoiy qalami mansub “Majolis un-nafois” tarzkiyasidan qilgan tarjima asarlarini bir kitobda jamlagan holda “Majolis un-nafois” nomi ostida Tehronda nashr ettiradi va bu bilan tom ma’nodda “Eron navoiyshunosligi”ga tamal toshini qo‘yadi. Bu kitob oradan qirq yil o‘tib muxlislar talabi bilan 1984-yilda Eronda qayta nashrdan chiqadi. Bundan mazkur asarning eronliklar orasida nechog‘lik ahamiyati ekanligini ilg‘ash qiyin emas.

Alisher Navoiy asarlarini Eron xalqi orasida ommalashtirishda o‘zining benihoya katta hissasini qo‘shgan navoiyshunoslardan yana biri **Rukniddin Humoyun Farruxdir**.

Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asari Eronda ilk marotaba aynan Humoyun Farruxning tahrir, so‘zboshi va ilovalari bilan 1963-yilda “Sino” nashriyotida nashr etiladi. Mazkur asar muxlislarda qiziqish uyg‘otgani bois ularning talabi bilan 1997-yilda “Asotir” nashriyotida 3000 ming nusxada qaytadan chop etiladi.

Alisher Navoiy asarlarini fors tiliga tarjima qilib, Eron xalqi orasida ommalashtirishda o‘z hissasini qo‘shgan tarjimonlardan biri **Muhammad Naxjuvoni**dir.

Muhammad Naxjuvoni 1941-yili birinchi bo‘lib “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini turkiy tildan fors tiliga o‘giradi. Uning mazkur tarjimasining asl varianti Tehron universiteti adabiyot fakultetining kutubxonasida 111 tartib raqami ostida saqlanib kelinmoqda.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi borasida tadqiqot olib borib, Naxjuvoni tomonidan tarjima qilingan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini nashrga tayyorlab, Navoiyni Eron xalqiga yanada yaqindan tanishtirgan XX asr Eron navoiyshunos olimlardan yana biri bu **Mahdi Farhoni Munfariddir**.

Mahdi Farhoni 2003-yilda 111 tartib raqami ostida Tehron universiteti adabiyot fakultetining kutubxonasida saqlanayotgan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining Muhammad Naxjuvoni tomonidan fors tiliga o‘girilgan nusxasidan foydalanib, o‘zining so‘z boshi, ilovalari va ayrim tuzatishlari bilan Tehrondagi “Nomai Farhangiston” jurnalining 12-soni ilovasida chop ettiradi.

“*XXI asr – Eron navoiyshunosligida yangi bosqich*” deb nomlangan ikkinchi faslda navoiyshunoslik ilmining keyingi davrlardagi taraqqiyot dinamikasi ilmiy asoslab beriladi. Bundan tashqari, bu faslda eronlik navoiyshunoslarning sohada olib borgan faoliyati va amalga oshirgan ishlari xolisona o‘rganilgan hamda yangi faktik ma’lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarining forsiy tarjima variantlari xususida bag‘oyat qimmatli ma’lumotlar, kuzatish va tahlillar asosida taqdim etilgan.

Eron navoiyshunosligining bu bosqichi, ya’ni uchinchi bosqichiga kelib, A. Navoiyning fors tilidagi asarlaridan tashqari turkiy asarlarini o‘rganishga ko‘proq

e'tibor qaratila boshlandi. Bu davrda Sug'robonu Shigufta, Behbud Murodiy, Bahman Akbariy, Muhammad Sorli, Parvizbigi Habibobodiy, Hodi Bidakiy, Sayyid Ehsan Shukrxudoiy, Munira Muhammaddodiy, Amir Ne'mati Limoiy, Muhammadzoda Siddiq kabi navoiyshunoslar tadqiqotlar olib bordilar. Eron navoiyshunosligi bu davrda oldinga katta bir qadam tashladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Eron va O'zbekiston olimlarining navoiyshunoslik borasidagi hamkorligini biz birinchi marotaba **Bahman Akbariy** va **Suyima G'aniyevalar** hamkorligida ko'ramiz. Bahman Akbariy Eron va O'zbekiston olimlarini o'zaro bog'lagan "ko'prik" vazifasini bajargan deyish mumkin. U o'zbek navoiyshunos olimasi bilan birgalikda Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asarini 2009-yilda arabcha, forscha, o'zbekcha, ruscha hamda inglizcha tarjimalari bilan "al-Hudo" nashriyoti chop ettiradi.

Eronda bugungi kunda Navoiy, uning asarlari hamda asarlarining qo'lyozmalari yuzasidan tadqiqot olib borayotgan eng sermahsul navoiyshunoslardan biri bu **Hodi Bidakiy**dir.

H. Bidakiy 2019-yili "Temuriylar davridagi Hirot adabiy muhitini Faxriy Hiraviyning "Latoyifnoma" asari asosida o'rganilishi" nomli doktorlik dissertatsiyasini Mashhaddagi Firdavsiy universitetida muvaffaqiyatli himoya qiladi va uni risola shaklida nashr ettiradi. 2021-yili olim o'zining muqaddima, tahrir, izoh va ilovalari bilan Faxriy Hiraviyning "Latoyifnoma" asarini Mahmud Afshor fondi ko'magi bilan "Suxan" nashriyotida chop ettiradi. Bu ishni Eron navoiyshunosligida qo'yilgan yana bir katta odimlardan biri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

H. Bidakiy 2021-yili Qazviniyning "Majolis un-nafois"dan qilgan forscha tarjimasini – "Hasht bihisht" asarini o'zining muqaddima, tahrir, izoh va ilovalari bilan nashr ettiradi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish, uning asarlarini fors tiliga o'girib, fors tilida yozilganlarini nashrga tayyorlashda o'z mehnatini ayamayotgan navoiyshunoslarning bugungi kundagi eng sermahsul tadqiqotchilaridan biri shubhasiz, **Amir Ne'mati Limoiy**dir.

N. Limoiy Alisher Navoiy bilan bog'liq va uning qalamiga mansub quyidagi kitoblarni nashr ettirgan:

*a) **Barrasii zindagii siyosi va vokovii kornomai ilmi, farhangi, ijtimoi va iqtisodii Amir Alisher Navoi***

Navoiyshunos olim N. Limoiy qo'lyozma manbalar asosida shoir hayoti, faoliyati va ijodiga oid manbalarni sharhlagan holda "Barrasii zindagii siyosi va vokovii kornomai ilmi, farhangi, ijtimoi va iqtisodii Amir Alisher Navoi" "(Amir Alisher Navoiyning siyosiy hayoti hamda ilmiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyati tadqiqi)" nomli monografiya yaratib, uni 2015-yili chop ettiradi. Shuningdek, u 2016-yilda Alisher Navoiyning "Mufradot" asarini o'zining so'z boshi, ayrim tuzatishlari va sharhi bilan Eronda nashr ettirdi.

Ne'mati Limoiy nashr ettirgan "Mufradot" asari bilan Toshkentda nashr etilgan "Mufradot" orasida birgina farq bor, u ham bo'lsa kitob matnida berilgan

muammolarning har biriga Ne'matiy Limoiy tomonidan havolada yechim berilganidir.

Alisher Navoiyning "Munojotnoma" asari 2017-yili N. Limoiyning tarjima, muqaddima, ilova va sharhlari bilan Erondagi "Jangal" nashriyotida chop etildi. Muallif debochada ta'kidlaganidek, kitobni nashr etishda ikki – birinchisi Alisher Navoiyning O'zbekistonda chop etilgan "Mukammal asarlar to'plami"da berilgan "Munojotnoma", ikkinchisi "Munojotnoma"ning o'zbek olimasi Suyima G'aniyeva tomonidan inglizchaga tarjima qilinib, nashr etilgan nusxalaridan foydalangan.

N. Limoiy 2021-yilda Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" va "Fusuli arbaa" qasidalarini o'zining so'z boshi, ayrim tuzatishlari va sharh berishi bilan Tehronda "Logos" nashriyotida chop ettirdi.

Zamonaviy Eron navoiyshunoslari orasida 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoniga ko'ra "Do'stlik ordeni" bilan mukofotlangan **Doktor Muhammadzoda Siddiq**ning o'rni alohida ahamiyatga ega.

M. Siddiq Alisher Navoiy va u bog'liq quyidagi kitoblarni nashr ettirgan:

**a) Sanglox**

Doktor Siddiqning eng ahamiyatga molik ishlaridan biri bu 2006-yilda Alisher Navoiy asarlari lug'ati – "Sanglox"ni o'zining tahriri, so'z boshi va ilovalari bilan nashr etib, ilm ahliga taqdim etganligidir. Bu ishning naqadar ahmiyatli ekanligini uning 10 yillik mashaqqatli mehnatdan so'ng nashrdan chiqqanligidan ham ilg'ash mumkin.

**b) Maboni' ul-lug'ot**

Bu kitob Muhammadzoda Siddiq tomonidan 2017-yili chop ettirildi. Bu asarning qo'lyozma nusxalari ham alohida tarzda va ham "Sanglox"ning muqaddimasi tarzida mavjuddir. Olim ana shu nusxalardan bir nechtasini o'zaro qiyoslab, tahrir qilib, nashr ettiradi.

**c) Tazyil**

Mazkur lug'at Mirzo Mehdixon Astrobody qalamiga mansub "Sanglox" lug'atining bir qismi bo'lib, unda Alisher Navoiy asarlarida foydalangan forscha so'z va istilohlarning ma'nosi sharhlangan. Muallif so'zlarni sharhlashda misol va dalillarni ko'pincha Alisher Navoiyning turkiy asarlaridan, ba'zida esa forsiy asarlaridan keltirgan.

Mazkur asarning Muhammadzoda Siddiq tomonidan 2017-yili "Bunyodi Shukuhi" nashriyotida chop etilishi, Eron adab ahli tomonidan iliq kutib olindi.

Bu davrda yuqorida tilga olingan olimlardan tashqari Sug'robonu Shigufta, Behbud Murodiy, Muhammad Sorli, Parvizbigi Habibobody, Sayyid Ehson Shukrxudoiy, Munira Muhammaddodiy kabi navoiyshunoslarning ham tadqiqot olib borganlarini alohida qayd etmoq lozim.

Eron navoiyshunoslari "Navoiyshunoslik"ning ushbu bosqichida e'tiborni ko'proq Alisher Navoiyning turkiy asarlariga qaratdilar. Shu o'rinda Behbud Murodiy tomonidan "Navodir ush-shabob" asarining Eronda ozar tiliga tabdil qilinishi, shoir tanlangan she'rlarining "Devoni ash'ori turkiy" nomi bilan asliyatda, fors alifbosida chop etilishi katta ahamiyat kasb etdi. Garchi forsiyzabonlar bu nashrlarni to'la to'kis tushunmasalarda, ularda Alisher Navoiy ijodiga nisbatan

qiziqishning ortishiga olib keldi, Erondagi turkiy xalqlar uchun esa ayni muddao bo‘ldi. Shoirning turkiy asarlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish, ularni fors tiliga tarjima qilish, forsiyda yozilganlarini nashrga tayyorlash ushbu bosqichning xarakterli jihatlaridandir.

Tadqiqotning **“Faxriy Hiraviy va Hakimshoh Qazviniy tarjimashunoslik faoliyatida “Majolis un-nafois”ning o‘rni”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki faslga bo‘lib tadqiq qilingan. Bunda, asosan, Alisher Navoiyning eng mashhur tazkisasi sanalgan “Majolis un-nafois”ning forsiy tarjimalari o‘zaro qiyoslangan hamda original matnga solishtirilib, tarjimalar tahlilga tortilgan. Ushbu asar fors tiliga bir necha bor tarjima qilingan bo‘lib, tarjimonlar ba’zi o‘rinlarda asl matn qismlarini tarjima qilinmasdan tushurib qoldirgan bo‘lsalar, ayrim hollarda aksincha o‘zlari bilgan qo‘shimcha ma’lumotlarni asar matniga kiritganlar. Bu jarayonda tarjimadan so‘z yoki butun boshli bir gapning tushirib qoldirilishi yoki qo‘shimcha qilinishi kontekst ma’nolarining birmuncha o‘zgarishiga sabab bo‘lgan.

Bobning *“Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqi*” deb nomlangan ilk faslida mutafakkirning nasriy asarlari sirasiga kiritilgan “Majolis un-nafois” tazkirasining ilk forsiy tarjimasi xususida so‘z boradi.

Faxriy Hiraviy “Majolis un-nafois” tazkirasidagi sakkiz majlisni tarjima qilib bo‘lganidan so‘ng, o‘zi mustaqil ravishda to‘qqiz qismdan iborat “To‘qqizinchi majlis”ni ilova qilib, asarni bir butunlikda *“Latoyifnoma”* deya qayta nomlaydi. Tarjima muallifi to‘qqizinchi majlisda Navoiyning sharhi holi va o‘ziga zamondosh bo‘lgan, ammo Alisher Navoiy tilga olmagan 189 ta shoir haqida ma’lumot beradi. *“Latoyifnoma”* zamon nuqtai nazaridan *“Majolis un-nafois”*ning ilk tarjimasi bo‘lib, asarning boshqa tarjimalariga qaraganda ancha ravondir. Faxriy boshqa tarjimonlardan farqli ravishda turkiy matn ma’nosini saqlab qolishga, matndan yiroqlashmaslikka astoyidil kirishadi va iloji boricha turkiy matnning aksariyat qismini fors tiliga tarjima qiladi.

“Majolis un-nafois”ning boshqa tarjimalariga nisbatan bu tarjima o‘zidan keyingi tazkiralarning yozilishida katta ahamiyat kasb etgan. Tazkiranavislar *“Majolis un-nafois”*ning turkiy matnidan qay darajada foydalangan bo‘lsalar, forsiy tarjimadan ham xuddi shu darajada foydalanganlar. “Arafot ul-oshiqin”, “Riyoz ush-shuaro”, “Haft iqlim”, “Xulosat ul-ash’or” va “Xazinai ganji ilohi” kabi asarlarning mualliflari “Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma”dan, ya’ni asarning ham turkiy va ham forsiy variantlaridan keng foydalanganlar, hatto mazkur ikki asardan nisbatan yaqin bo‘lgan davrlarda yozilgan “az-Zari’a”, “Farhangi suxanvaron”, “Torixi nazmu nasri forsiy” va “Torixi adabiyot dar Eron” kabi asarlarning yozilishida ham keng foydalanilganligining guvohi bo‘lamiz.

“Latoyifnoma” va “Hasht bihisht” tarjima asarlarini bir jildda nashr ettirgan A. Hikmat kitob muqaddimasida tarjima asarlarining debochasi to‘g‘risida shunday yozadi:

*“Faxriy Hiraviy va Hakimshoh nima sababdan Amir Alisherning tazkirasiga yozgan muqaddimasini fors tiliga tarjima qilmaganliklari noma’lum. Shuning uchun*



*muhtaram olim – janob Ismoil Amir Xiziydan shu [muqaddima]ni tarjima qilib berishini iltimos qildim.<sup>33</sup>*

Bundan kelib chiqib, yuqorida tilga olingan tarjimonlar “Majolis un-nafois” tazkirasini muallif debochasisiz tarjima qilganlar deb aytish mumkin bo‘ladi.

Olimning kitobga yozgan muqaddimasidan, “Latoyifnoma”ni nashr etishda faqatgina bitta forscha nusxadan foydalanib, so‘ngra uni “Majolis un-nafois” asarining uch turkiy tildagi qo‘lyozmasi bilan qiyosiy o‘rgangani ma‘lum bo‘ladi. Dastavval u “Latoyifnoma”ning forscha matnini h. 992/ m. 1583 yilda kitobat qilingan Hoji Muhammad Naxjuvoni qo‘lyozma nusxasi asosida qaytadan tahrir etib, keyin uni h. 997/ m. 1588 yilda kitobat qilingan Muhammad Ali Tarbiyatning turkiy tildagi qo‘lyozmasi va h. 1030/ m. 1620 hamda h. 1051/ m. 1640 yillarda kitobat qilingan va hozirda Eronning Sipahsolor kutubxonasida №2729 va №100 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan boshqa ikki turkiy tildagi nusxa bilan qiyoslaydi.

Mazkur faslda olima S. G‘aniyeva foydalangan qo‘lyozma nusxalar A. Hikmat foydalangan nusxalarga nisbatan qadimiy va ayni vaqtda mu‘tabarroq bo‘lganligi sababli Faxriy Hiraviy “Latoyifnoma” tarjima asari matni Toshkent nusxasi bilan qiyoslandi. Shu o‘rinda nusxalarni qiyosiy o‘rganish jarayonida nashrlardagi ba‘zi nuqsonlar xususida to‘xtalib, jumladan, “Tehron nashri”da shoirlar she‘rlarining nomlarida, ba‘zida esa shoirlarning sharhi holini keltirishda xato iboralarning qo‘llanilganligiga guvoh bo‘ldik. Qizig‘i, bu yo‘l qo‘yilgan xatolar keyinchalik “az-Zari‘a”, “Farhangi suxanvaron” va “Lug‘atnomai Dehxudo” kabi asarlarda ham o‘z aksini topgan. Bu xato va kamchiliklar hamda ularning boshqa manbalarda qo‘llanilganligi asarning “Toshkent nashri” hamda vaqt nuqtai nazaridan mazkur asardan oldin yozilgan “Tazkirat ush-shuaro”, “Habib us-siyar”, “Tuhfai Somiy” va “Arafot ul-oshiqin” kabi asarlarni mutolaa qilgandan so‘ng yaqqol ravshanlashadi. Shuningdek, “Latoyifnoma” chop ettirilgan kitobdan o‘rin olgan Qazviniyning tarjimasida yaxshi tahrir qilinmaganidan “Latoyifnoma”dagi mavjud xatolar aynan Qazviniyning tarjimasida ham takrorlanganligi ko‘zga tashlanadi. Ushbu faslda “Majolis un-nafois”da keltirilgan, ammo tarjimada nomlari tushirib ketilgan shaxslarning avtobiografik ma‘lumotlari qiyosiy tahlil etilib, natijalar jadvallar ko‘rinishida aks ettirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “Toshkent nashri”da mavjud ayrim shoirlarning sharhi holi va she‘rlaridan namunalar “Tehron nashri”da tarjima qilinmagan va keltirilmagan. A. Hikmat nashr etgan “Latoyifnoma” bilan S. G‘aniyeva nashr etgan “Majolis un-nafois” asarini o‘zaro solishtirib o‘rganish natijasida, ular orasida anchagina tafovut borligi namoyon bo‘ldi. Jumladan:

1) 70 nafar shoirning sharhi holi “Toshkent nashri”da keltirilgan bir paytda, “Tehron nashri”da ular haqida hech narsa deyilmagani oydinlashdi.

2) “Toshkent nashri”ga nisbatan olib qaraganda “Tehron nashri”da 105 nafar shoirlarning nomu nasabi va taxallusi bilan bog‘liq farqlar borligi aniqlandi;

3) “Tehron nashri”da keltirilgan ayrim shoirlar haqidagi ma‘lumot bilan “Toshkent nashri”da aynan o‘sha shoirlar haqidagi ma‘lumot orasida ixtiloflar borligi namoyon bo‘ldi.

تذکرہ مجالس النفایس، به سعی و اهتمام علی اصغر حکمت، 1944، تهران: کتابفروشی منوچهری، ص ۱۰۳.

4) Shoirlar bilan bog‘liq ixtiloflardan tashqari “Tehron nashri” bilan “Toshkent nashri” orasida turli shoirlar ijodidan keltirilgan she‘rlar va ularning mazmun-mohiyatida ham tafovutlar borligi aniqlandi.

5) Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ko‘p hollarda shoirlar ijodidan namuna sifatida bir yoki ikki bayt keltirish bilan cheklangan. “Tehron nashri”da esa ba‘zan mazkur she‘rlarning ayrim misralari keltirilmasdan, ularning o‘rni ochiq qoldirilgan.

6) “Tehron nashri”da ba‘zi bir iboralar ma’nosida tushunarsiz o‘rinlar mavjud bo‘lib, bu ka, chilik tayanch manba – “Toshkent nashri” yordamida bartaraf etildi.

Bobning ikkinchi fasli “*Majolis un-nafois*” va “*Hasht bihisht*” asarlarining qiyosiy tahlili” deb nomlanadi. **Faxriy Hiraviy** tarjimasidan hech qancha vaqt o‘tmasdan, Hakimshoh bu asarning ikkinchi forscha tarjimasini Istanbulda nihoyasiga yetkazadi.

U tarjima asar “Hasht bihisht”ni Faxriy Hiraviy kabi asl turkiy matn qanday berilgan bo‘lsa shundayligicha tarjima qilmay, unga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritgan.

Hakimshoh Qazviniy “Majolis un-nafois” tazkirasidagi yetti majlisni “Yetti bihisht” qolibida tarjima qilganidan so‘ng, oxirgi sakkizinchi majlisni qisqartirishlar bilan tarjima qilib, uni ham “Yettinchi bihisht” oxiriga qo‘shib yuboradi hamda tarjima so‘ngiga ikki “Ravza”dan iborat bo‘lgan boshqa bir “Bihisht”ni qo‘shib, asarni bir butunlikda “Hasht bihisht”, ya’ni “Sakkiz jannat” deya qayta nomlaydi. Birinchi ravzada Sulton Salim Usmoniy ( 1513-1520 y.) zamonigacha yashagan 70 nafar shoir sharhi holini keltirgan bo‘lsa, ikkinchi ravzada Sulton Salim zamonidagi 82 shoir haqida ma’lumot beradi.

Shuningdek, asl matnda mavjud bo‘lib, ammo H. Qazviniy tomonidan “tushirib qoldirilgan” matn qismlari asosan shoirlarning ismi yoxud ular haqidagi ma’lumotlarda, shoirlar qalamiga mansub baytlarda va ularning sharhi holda ko‘zga tashlanadi.

Ali Asg‘ar Hikmat Qazviniyning “Hasht bihisht” asarini nashrga tayyorlashda birinchi navbatda mazkur asarning eronlik olim Said Nafisiy qo‘lidagi forscha qo‘lyozmasidan foydalanadi, ammo ushbu tarjima xato va kamchiliklardan xoli bo‘lmaganligi bois uni Istanbuldagi As‘ad Afandi kutubxonasida №3788 inventar raqami ostida saqlanayotgan boshqa fors tilidagi tarjima asosida to‘ldiradi. Shu bilan cheklanmasdan mazkur matnni “Latoyifnoma”ni nashrga tayyorlashda foydalangan uch nusxa – Muhammadali Tarbiyat kutubxonasidagi bir va Sipohsolor kutubxonasida saqlanayotgan asarning ikki turkiy qo‘lyozmasi bilan muqoyasa qilgan holda o‘rganib chiqadi va kamchiliklarini iloji boricha bartaraf etadi.

Asl turkiy matnda mavjud bo‘lib, ammo Qazviniy tomonidan “tushirib qoldirilgan” matn qismlari asosan shoirlarning ismi yoxud ular haqidagi ma’lumotlarda, shoirlar qalamiga mansub baytlarda va ularning sharhi holi bilan bog‘liq o‘rinlarda kuzatiladi. Bunga qo‘shimcha, Qazviniy asl matnda mavjud bo‘la turib, o‘z tarjimasida tashlab ketgan matn qismlari, uning asl matnga sodiq bo‘lmaganidan dalolat beradi, buni esa uning tarjimasidagi “zaif nuqta” deyish mumkin.

Hakimshoh Qazviniy o‘zining “Hasht bihisht” tarjima asarida shoirlarning ismi bilan bog‘liq 96 ta qisqartirishlar va o‘zgartirishlarni amalga oshirganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, u ikkinchi bihishtda – ayrim tarixiy shaxslar to‘g‘risida asarning asl matnida ma’lumot berilganiga qaramay ularni o‘z tarjimasida keltirmaydi.

“Majolis un-nafois”ning asl matnida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”da tarjimadan tushib qolgan shaxs nomlari bilan bog‘liq quyidagi holatlar aniqlandi:

1. “Majolis un-nafois”ning birinchi majlisida zikr etilgan ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 6 nafar;

2. “Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida zikr etilgan ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 5 nafar;

3. “Majolis un-nafois”ning uchinchi majlisida zikr etilgan ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 55 nafar;

4. “Majolis un-nafois”ning to‘rtinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 21 nafar;

5. “Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushib qolgan – 3 nafar;

6. “Majolis un-nafois”ning oltinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimada aks etmagan shoirlar – 3 nafar;

7. “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushirib ketilgan shoirlar – 12 nafarni tashkil etdi.

Qazviniy majlislar xatmi, ixtimomi bilan bog‘liq o‘rinlarni ham o‘z tarjimasida keltirmaydi. Shuningdek, “Majolis un-nafois”ning so‘nggi sakkizinchi majlisida keltirilgan Husayn Boyqaro to‘g‘risidagi ma’lumotni qisqartirishlar bilan fors tiliga o‘girilib, “Yettinchi majlis” oxiriga qo‘shib qo‘yilganligi oydinlashdi.

Dissertatsiyaning so‘nggi bobi Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” hamda “Muhokamatul lug‘atayn” nomli ikki asarining Erondagi nashrlari masalasiga bag‘ishlanib, **“Alisher Navoiy asarlari zamonaviy Eron navoiyshunoslari talqinida”** deb nomlangan. Dastlabki fasl *“Mezon ul-avzon” asari tarjimasida ekvivalentlik muammosi*” deb nomlanib, unda asarining fors tilidagi tarjimasida xususida so‘z yuritilib, tarjima muallifi M.Siddiqning bu yo‘nalishda amalga oshirgan ishlari xususida ma’lumot beriladi.

Olim mazkur asarni 2014-yilda Tehrondagi “Takderaxt” nashriyotida chop ettiradi. Undan oldin 1993 yilda Doktor Kamol Eraslan mazkur asarning yettita turkiy qo‘lyozmasini qiyosiy o‘rganib, uni Anqarada nashr ettirgan. Muhammadzoda Siddiq “Tehron universiteti adabiyot fakulteti kutubxonasi”da №237/ج inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxani Kamol Eraslan nashri bilan qiyosiy o‘rganib, undan yaxlit bir tarjimani yaratadi. Forsiy tarjima matni Anqaradagi nashr asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, havola "س" harfi bilan, agar №237/ج inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan bo‘lsa د harfi bilan maxsus qaydlar kiritilgan. Forsiy tarjima borasida tarjimonning o‘zi shunday yozadi:

ترجمه ی فارسی این جانب متکی به این متن است و سعی کرده ام در آن شیوه ی نگارش امیر علیشیر  
نوابی را حفظ کنم.<sup>34</sup>

**Tarjima:** “Kaminaning forsha tarjimasi ham ushbu matnga tayangan holda amalga oshirildi va unda Amir Alisher Navoiyning ijod uslubini iloji boricha saqlashga harakat qildim.”

Muhammadzoda Siddiq mazkur nashrda bayt va misralarni turkiy tilda keltirib, ostida o‘qilishini osonlashtirish maqsadida ularning transliteratsiyasini ham ilova qiladi. Transliteratsiyadan so‘ng esa she‘rlarning fors tilidagi tarjimasini joylashtiriladi. Kamol Eraslan nashrida lotin alifbosi asosida tuzilgan transliteratsiyaga unchalik e‘tibor berilmagan, ammo sharqiy turkiy xalqlar, jumladan o‘zbek xalqi uchun ahamiyatli bo‘lgan “fatha” diakretik belgisi va “خ”, “ق” harflarini M. Siddiq o‘zi tuzgan transliteratsiyada ifodalab, bu kamchilikni ham bartaraf etadi.

Doktor M. Siddiq ikkala – "ک" va "د" nusxada vaznni aniqlashda xatolar borligini quyidagicha zikr etadi: “Ba’zida ikkala "ک" va "د" nusxalarda vaznni aniqlashda xatolik yuz bergan. Bunday hollarda men vaznning to‘g‘ri variantini aniqlab, uni matnga kiritdim va har ikkala nusxadagi xatolarni havolada berib bordim. Ba’zida "د" nusxada "ک" nusxaga nisbatan olib qaraganda qo‘shimchalar mavjud bo‘lib, bunday ilovalarni [Kamol Eraslan tadqiq qilgan] hech bir nusxada ko‘rmadim”<sup>35</sup>. Faqat "د" nusxada mavjud bo‘lib, Eraslan foydalangan yettita qo‘lyozmada uchramaydigan shunday ilovalardan birini quyida keltiramiz:

زهی حسن اوجی اوزره عذارینگ مهر انور،  
قولاغینگدا در و لعل ایکی فرخنده اختر.<sup>36</sup>

Kitob mundarijasi va “transliteratsiya”sidan so‘ng tarjimon Alisher Navoiy hayoti va ijodi to‘g‘risida so‘z yuritib, uning qanday sharoitda siyosiy maydonga kirib kelganligi, Xurosonda qurdirgan binolari va xizmatlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Navoiy va Jomiyning do‘stligi haqida alohida to‘xtalib, do‘stlarning bir-birini madh qilgan she‘rlaridan parchalar keltiradi.

Shuni ham qayd etish lozimki, qiyosiy tahlilni amalga oshirish jarayonida original matn va uning M.Siddiq tarjimasidagi matni barobar keltirilib, so‘ng tahlilga tortiladi. Bu esa tahlillar va kuzatuvlarning ishonchli chiqishiga zamin yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda M. Siddiqning o‘zi bevosita ozariy millatiga mansub shaxs bo‘lganligi, fors tilini ham ona tilidek yaxshi bilishi va asl nusxaning nozik individual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan asrashga say’-harakat qilganligidan tarjima oliy darajada amalga oshirilgan. Fors o‘quvchisi mazkur tarjimoni o‘qiganida bevosita avval uning asl turkiydagi variantini, uning ozar tilidagi tabdili va forsiy tarjimasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Mezon ul-avzon” asarining forsiy tarjimasi asliyat bilan o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi natijasida, tarjimonning bevosita ozar millatiga mansub bo‘lganligi, fors tilini ham ona tilidek yaxshi bilganligidan asl nusxaning nozik individual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan asrashga say’-harakat qilganligi, vaznlar

<sup>34</sup> Amir Alişir Nawayi, Alişir bin Kijçikine. 2014. Mîzan al-avzan, Nergeme v Teshih v Mqdemeh Husin Muhamdzadeh Sadiq, v 53-54

<sup>35</sup> Amir Alişir Nawayi, Alişir bin Kijçikine. 2014. Mîzan al-avzan, Nergeme v Teshih v Mqdemeh Husin Muhamdzadeh Sadiq, v 109.

<sup>36</sup> O’sha asar, 57 b.

bo'yicha yetuk mutaxassis ekanligi, asarning aslini chuqur o'rganib shundan so'nggina uning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlaganligi, asar tarjimasini har jihatdan to'g'ri ekanligi aniqlandi.

Keyingi fasl "*Muhokamat ul-lug'atayn*" Eron navoiyshunoslari talqinida" deb nomlanib, unda ham asl turkiy matn tarjima matn bilan qiyoslab tahlilga tortilgan.

Alisher Navoiyning "*Muhokamat ul-lug'atayn*" asari birinchi marotaba 1950-yilda Turxon Ganjaviy tomonidan fors tiliga o'girilib, Tehronda chop etiladi. Ayni shu tarjima 1984-yilda ayrim o'zgartirishlar bilan Pokistonda ham nashr etiladi.

Zamonaviy Eron navoiyshunosligining darg'asi – Muhammadzoda Husayn Siddiq 2008-yilda "*Muhokamat ul-lug'atayn*" asarining chig'atoy tilidagi asl matn, lotin alifbosida berilgan transliteratsiya hamda ozar tiliga qilingan tabdili bilan birgalikda Tabrizdagi "Axtar" nashriyotida chop ettiradi. Bunda asarning forsiy tarjimasini sifatida T. Ganjaviy tomonidan tarjima qilingan matn aynan keltirilgan.

Eron navoiyshunoslari orasida "*Muhokamat ul-lug'atayn*" asariga ikki xil yondashuv kuzatiladi. Birinchi yondashuv tarafdorlari Alisher Navoiyning mazkur asarda keltirgan barcha da'volarini o'rinli va to'g'ri deya baholaganlar. Ularning qatorida Asg'ar Dilbaripur, Muhammadzoda Siddiq kabi olimlarni sanab o'tish mumkin. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa shoirning barcha da'volarini xom va tekshirilmagan tarzda bayon qilingan deya ta'kidlaydilar. Bu yo'nalish tarafdorlari sifatida Zabihulloh Safo, Amir Ne'mati Limoiy kabi navoiyshunoslarni qayd etish joiz.

T. Ganjaviyning "*Muhokamat ul-lug'atayn*" asaridan qilgan forsha tarjimasini bugungi kunga qadar Eronda ilk va yagona tarjima bo'lib turibdi. Ganjaviyning tarjimasida ba'zi bir qisqartirilgan o'rinlar mavjud bo'lib, Muhammadzoda Siddiq o'zining nashrida mazkur qisqartirishlarni o'zi foydalangan nusxadan fors tiliga o'girib, Turxonning tarjimasidan ajratib ko'rsatish maqsadida kvadrat qavs [] ichida keltiradi. Shuningdek, turkiy va forsiy she'rlar orasida ham ba'zi ixtiloflar mavjud bo'lsa-da, ularning matniga o'zgartirishlar kiritmaydi. M. Siddiq Turxon Ganjaviyning forsiy tarjimasini matniga quyidagi o'zgartirishlarni kiritadi:

- 1) Biror bir so'z yoki so'zlarni matnga kiritishga ehtiyoj tug'ilganida kvadrat qavs [] ichida beradi;
- 2) Turkiycha so'zlarning to'g'ri variantini lotin imlosi bilan birgalikda forsiy tarjimaga kiritib, tarjima muallifi so'zlarini kitob oxirida joylashtiradi va uni havolada [متن=] م. ya'ni, m. [=matn] tarzida ko'rsatib beradi. M. deb ko'rsatish bilan Turxon Ganjaviyning 1950-yildagi forsha tarjimasini nazarda tutadi;
- 3) Arabiy so'z va iboralarni kitobning "povaraqiho", ya'ni "havolalar" qismida sharhlaydi;
- 4) She'rlarning aruziy vaznlarini aniqlaydi.

Siddiq asliyatta berilgan she'rlarni avval turkiy tildagisini fors alifbosida, undan so'ng esa uning forsiy tarjimasini keltiradi. She'rlarni ba'zi o'rinlarda nazmiy ko'rinishda, boshqa o'rinlarda esa nasriy holda tarjima qiladi.

"*Muhokamat ul-lug'atayn*" asari tarjimasining asliyattan farq qiladigan yagona jihatlaridan biri M. Siddiq tomonidan asar qismlarining ma'no-mazmunidan kelib chiqib nomlaganidir.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini nashrga tayyorlagan M.Siddiq asarda uchragan hadislarga havola berib, ularning forscha tarjimasini kitob ilovasida keltiradi. Bu ishi bilan fors kitobxoniga kitobning o‘zida hadis mazmuni bilan tanishish imkonini beradi va o‘z navbatida o‘quvchining hadis mazmunini qidirishga ketadigan vaqtini tejaydi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asari uning fors tilidagi tarjimasini bilan qiyosiy o‘rganilganda tarjimon tarjimada o‘zini muallifining ijodiy yordamchisi sifatida ko‘ganligini, muallif aytmoqchi bo‘lgan g‘oyaviy maqsadni to‘la va puxta ishlash orqali o‘z tilida yaratganligini, o‘zini muallif bilan bir qatorda asar uchun mas‘ul sanaganligi, tarjima — asarning boshqa tildagi to‘liq nusxasi ekanligini unutmaganligi kuzatildi.

## XULOSA

Alisher Navoiy jahon afkor ommasining yetuk mutafakkiri sifatida shuhrat qozonib, hali hanuz uning ijodi barhayotligicha qolmoqda. Alisher Navoiy yaratgan mislsiz ma‘naviy xazinadan nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo ahli foydalanib, o‘ziga kerakli ma‘nolarni kashf etayotgani sir emas.

Manbalarda kelishicha, Alisher Navoiy hali hayotlik davridayoq uning asarlariga qiziqish juda baland bo‘lgan. Xususan, shoirning asarlari fors tiliga tarjima qilinib, turkiy bo‘lmagan xalqlar orasida ham mashhurlikka erishgani fikrimizning dalilidir. Alisher Navoiyning turkiy tilda yozgan ilk tazkisasi “Majolis un-nafois” uning zamondoshlari Faxriy Hiraviy hamda Hakimshoh Qazviniylar tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Faxriy Hiraviy o‘zining tarjimasini “Latoyifnoma” deb atagan bo‘lsa, Qazviniy o‘z tarjimasiga “Hasht bihisht” nomini berdi. E‘tiborli jihati, har ikki muallif ham tarjimini bir-birlaridan bexabar ravishda amalga oshirganlar. Endilikda Navoiyning asarlarini turkiy va forsiy tillarda Eronda nashr etishga qiziqish kuchaygani Eron navoiyshunoslik maktabining taraqqiy etishiga zamin yaratmoqda.

1. Biz manbalar, tadqiqot va tahlillarni o‘rganish asnosida Eronda Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish va tadqiq etish 3 bosqichda amalga oshirilgan, degan xulosaga keldik:

**Birinchi bosqich** XVI asrdan XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan bo‘lib, bu davrda Alisher Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” tazkirasining Faxriy Hiraviy, Hakimshoh Qazviniy, Shayxzoda Foyiz Nimardoniy, Shoh Ismoil bin Abdulaliy va Mirzo Abdulboqiy Sharif Razaviylar tomonidan fors tiliga tarjima qilinishi Eronda navoiyshunoslikning ilm tarmog‘i sifatida shakllanishiga turtki bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan ushbu tazkirasining fors tiliga tarjima qilinishini Eronda navoiyshunoslik ilk bor shoir asarlarining tarjimasini bilan boshlangan, deb xulosa qilishimizga asos bo‘ladi.

**Ikkinchi bosqichga**, XX asrning o‘rtalaridan to shu asrning oxirlarigacha bo‘lgan muddatni kiritish mumkin bo‘ladi. Bu davr, ya‘ni taxminan mana shu 50 yil Eron navoiyshunosligiga tamal toshi qo‘yilganligi bilan xarakterlidir. Bu davrda

yashab ijod qilgan tadqiqotchilardan Ali Asg‘ar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux, Muhammad Naxjuvoni, Mahdi Farhoni, Munfarid, Sayid Nafisiy, Zabihullo Safo kabi olimlarning nomlarini zikr etmoq joiz.

**Uchinchi bosqich**, XXI asrning boshidan shu kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichning xarakterli jihati shundaki, oldin asosan shoirning forsiy asarlarini o‘rganishga ko‘proq o‘rg‘u berilgan bo‘lsa, bu bosqichga kelib, forsiy asarlari bilan bir qatorda turkiy asarlarini o‘rganishga ham e‘tibor qaratilmoqda. Bu davrga kelib navoiyshunoslik ilmi taraqqiy etib, unda Sug‘robonu Shigufta, Behbud Murodiy, Bahman Akbariy, Muhammad Sorli, Parvizbegi Habibobodiy, Hodi Bidakiy, Sayyid Ehsan Shukrxudoyi, Munira Muhammaddodiy, Amir Ne‘mati Limoiy, Muhammadzoda Siddiq kabi tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Shu o‘rinda qayd etish joizki, hozirgi paytda Alisher Navoiy asarlarini forsiy tilga tarjima qilish tendensiyasi ham kuchayib bormoqda. Bu yo‘nalishda olim va tarjimonlardan Bahman Akbariy, Ne‘mati Limoiy va Muhammadzoda Siddiqning nomlari ma‘lum va mashhurdir.

2. “Majolis un-nafois” tazkirasi turkiy tildan forsiy tilga besh marotaba tarjima qilingan. Bu tarjimalar Faxriy Hiraviy, Hakimshoh Qazviniy, Shayxzoda Foyiz Nimardoniy, Shoh Ismoil bin Abdulaliy, Mirzo Abdulboqiy Sharif Razaviy kabi mualliflar tomonidan amalga oshirilgan.

3. Alisher Navoiy ijodining eronlik olimlar tomonidan o‘rganilishi to‘g‘risida so‘z borganda, eng avval Ali Asg‘ar Hikmatning samarali izlanishlarini alohida qayd etish o‘rinli. Ali Asg‘ar Hikmat 1945-yilda “Majolis un-nafois”ning ikki forscha tarjimasi “Latoyifnoma” (Faxriy Hiraviy) va “Hasht bihisht” (Hakimshoh Qazviniy) asarlarini bir jildga jamlab, “Majolis un-nafois” nomi ostida Tehronda nashr ettirdi va bu bilan tom ma‘noda “XX asr Eron navoiyshunosligi”ga tamal toshini qo‘ydi.

4. Alisher Navoiy asarlarini Eron xalqi orasida ommalashtirishda katta hissasini qo‘shgan eronlik navoiyshunoslardan yana biri Rukniddin Humoyun Farruxdir. Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asari Eronda ilk marotaba aynan Humoyun Farruxning tahrir, so‘zboshi va ilovalari bilan 1963-yilda “Sino” nashriyatida chop etildi.

5. Muhammad Naxjuvoni Alisher Navoiyning “Xamsatul mutahayyirin” asarini 1941-yilda forsiyga tarjima qilgan bo‘lsa, Mahdi Farhoni, Munfarid ushbu tarjimani 2003-yilda o‘zining so‘zboshi, tuzatishlari va hamda ilovalari bilan nashr ettirdi.

6. XXI asrga kelib, Alisher Navoiyning turkiy asarlarini Eronda ommalashtirishda Behbud Murodiy (Elchibek), Bahman Akbariy, Doktor Oroz Muhammad Sorli, Azimquli, Parvizbegi Habibobodiy, Muhammadzoda Siddiq, Hodi Bidakiy, Sayid Ehsan Shukrxudoyi, Munira Muhammaddodiy, Amir Ne‘mati Limoiy kabi navoiyshunoslarning hissaları benihoya katta. Bu davrda Navoiyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot va kuzatishlarni o‘z ichiga olgan monografiyalar hamda maqolalar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, Amir Ne‘mati Limoiy tomonidan “Amir Alisher Navoiyning siyosiy hayoti hamda ilmiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyati tadqiqi” nomli monografiyasi nashr etildi, Hodi Bidakiy esa “Kitobshinosii tavsifi-intiqodii Amir Alisher Navoi” (“Amir Alisher

Navoiyning tavsifiy-tanqidiy bibliografiyasi”), “Zarurati tashihi intiqodii Latoyifnoma Faxrii Hiravi” (“Faxriy Hiraviyning Latoyifnoma asarini tanqidiy tuzatish zarurati”), “Barrasii intiqodii shoiri Majolis un-nafois dar Arafot ul-oshiqin” (“Arafot ul-oshiqinda aks etgan Majolis un-nafois shoirlarini tanqidiy o‘rganish”), “Barrasi va bozshinosii duvumin tarjimai Majolis un-nafoisi Amir Alisher Navoi” (“Amir Alisher Navoiyning Majolis un-nafois asarining ikkinchi tarjimasi tadqiqi”) kabi turkum maqolalari e‘lon qilindi. Shuningdek, bu bosqichda Alisher Navoiyning bir nechta turkiy asarlari fors tiliga tarjima qilinib, ba‘zi o‘rinlarda ularning sharhi ham berib borildi. Jumladan, N. Limoiy “Risolai Mufradot” (dar fanni muammo) hamda Munojotnoma kabi asarlarni 2016-2017 yillarda nashr ettirgan bo‘lsa, **Sittai zaruriya va Fusuli arbaa** nomli qasidalarni o‘zining fors tilidagi sharhi hamda juz‘iy tuzatishlari bilan 2021-yilda chop ettirdi.

7. Alisher Navoiyning fors tiliga eng ko‘p tarjima qilingan asari “Majolis un-nafois” tazkirasidir. Ushbu tazkiraning “Toshkent nashri” va Eronda chop etilgan “Latoyifnoma”ning “Tehron nashri” orasida tafovutlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu tafovutlar aksariyat hollarda yo ilovalarning nomlanishi yoki shoirlar ismi hamda taxallusi yoxud ijodkorlar shaxsiyati va ularning she‘rlari shakli bilan bog‘liqdir. “Tehron nashri” va “Toshkent nashri” orasidagi xato-kamchiliklar – Hikmatning “Latoyifnoma” asari borasida olib borgan o‘rganishlaridagi nuqsonlardir. Jumladan, “Tehron nashri”da ba‘zi bir o‘rinlarda o‘qishning imkoni bo‘lmagan so‘zlar o‘rniga nuqtalar qo‘yib ketilgan. Shuningdek, “Tehron nashri”da turkiy matn tarjimasi hamda tarjimonning unga kiritgan ilovalari orasida aniq chegara mavjud emas. Hikmat “Latoyifnoma” asari matnining ayrim qismlarini tarjimon ilovalari sifatida bilib, kvadrat qavs – [] ichida keltiradi. Aslida esa Toshkent nashrini o‘rganish natijasida [] ichida berilgan “ilovalar” tarjimonga emas, balki yozuvchi qalamiga mansubligiga guvoh bo‘lamiz.

8. Ali Asg‘ar Hikmat ikki tarjimini, ya‘ni Faxriy va Qazvinii tarjimalarini bir kitobda nashr etadi, lekin u foydalangan nusxalarda mavjud xatoliklar tufayli, ba‘zida ikki tarjimada qaydlarning nomlanishi va mazmun-mohiyati orasida nomutanosiblik va ixtilofni yuzaga keltirgan. Umuman olganda, ba‘zida bir qaydning mazmuni Faxriy tarjimasida bir shoirga nisbat berilgan bo‘lsa, Qazvinii tarjimasida o‘sha qaydning mazmuni boshqa bir shoirga tegishliligi aytiladi, bu esa o‘z navbatida ikki tarjima orasida tafovut va nomutanosiblikning mavjudligidan darak beradi.

9. Faxriy Hiraviydan farqli ravishda Hakimshoh Qazvinii “Majolis un-nafois”ning asl turkiy matnini o‘z holicha tarjima qilmay, tarjimaga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritgan. Natijada tarjimon asl turkiy matndan ancha uzoqlashgan. Bundan tashqari, Qazvinii tomonidan turkiy matnda mavjud ba‘zi o‘rinlarning tarjima qilinmay, tarjimadan tushurib qoldirish holatlari ham uchraydi. Buni esa tarjimonning tarjima faoliyatidagi zaif nuqta sifatida baholash mumkin.

10. Hakimshoh Qazvinii o‘zining “Hasht bihisht” tarjima asarida shoirlarning ismi bilan bog‘liq 96 ta qisqartirishlar va o‘zgartirishlarni ham amalga oshirgan. U ikkinchi bihishtda ayrim tarixiy shaxslar to‘g‘risida asarning asl matnida ma‘lumot berilganiga qaramay o‘z tarjimasida keltirmaydi. “Majolis un-nafois”ning asl



matnida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”da tarjimadan tushib qolgan shaxs nomlari bilan bog‘liq quyidagi holatlarni sanab o‘tish mumkin:

- 1) uchinchi majlisda zikr etilgan ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 55 nafar;
- 2) to‘rtinchi majlisda keltirilib, ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 21 nafar;
- 3) “Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 3 nafar;
- 4) “Majolis un-nafois”ning oltinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimada aks etmagan shoirlar – 3 nafar;
- 5) “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushirib ketilgan shoirlar – 12 nafarni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, Qazviniy tomonidan majlislar xatmi, ixtimomi bilan bog‘liq o‘rinlar ham tarjimadan tushirib qoldirilgan, ular “Majolis un-nafois”ning avvalgi majlisining itimomi”, “Ikkinchi majlis ixtimomi”, “Uchinchi majlisning xatmi”, “To‘rtinchi majlis oxiri”, “Beshinchi majlisning g‘oyati”, “Oltinchi majlisning nihoyati”, “Yettinchi majlisning tuganchisi”lardir.

11. Tarjimon “Hasht bihisht”da “Majolis un-nafois”ning oxirgi sakkizinchi majlisida keltirilgan Husayn Boyqaro to‘g‘risidagi ma‘lumotni keskin qisqartirib, uni yettinchi majlis oxiriga qo‘shib qo‘yadi va shu bilan yettinchi majlis o‘z nihoyasiga yetadi.

12. Zamonaviy Eron navoiyshunosligi rivojiga bemisl hissa qo‘shgan olimlardan biri Doktor Muhammadzoda Siddiqdir. Ushbu olim tomonidan bugungacha Alisher Navoiy asarlariga ishlangan lug‘atlar – “Sanglox”, “Maboni ul-lug‘ot”, “Tazyil”, “Xulosai Abbosiy” chop etilgan. Shuningdek, u “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini nashrga tayyorlab, “Mezon ul-avzon” asarini fors tiliga tarjima qilib, chop ettiradi. M. Siddiq “Mezon ul-avzon” asaridagi bayt va misralarni aslyatda keltirib, uning ostida o‘qilishini osonlashtirish uchun ularning transliteratsiyasini ham beradi. Transliteratsiyadan so‘ng esa she‘rlarning fors tilidagi tarjimasi ilova qilingani tarjimaning ishonchli chiqishiga olib kelgan. Kitob mundarijasi va transliteratsiyasidan so‘ng muallif Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy yo‘li haqida ma‘lumot beradi. Shuningdek, Navoiy va Jomiyning do‘stligi haqida alohida to‘xtalib, ularning bir-birini madh qilgan she‘rlaridan parchalar keltiradi. Olim matnning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, uni “sababi ta‘lif”, ya‘ni “yozilish sababi” tarzida nomlaydi. Fors o‘quvchisi bu matnni o‘qishga kirishishdan oldin, mazkur sarlavhani ko‘rishi bilan, gap nima haqda borishini oldindan sezib turadi.

13. “Mezon ul-avzon” asarining forscha tarjimasi kuzatilganda, bir qarashda Muhammadzoda Siddiq turkiy matnni to‘lig‘icha tarjima qilganga o‘xshaydi, ammo ikki tildagi matnni so‘zma-so‘z qiyoslaganimizda, berilgan matnning ba‘zi o‘rinlarini tarjimadan tushirib qoldirganligining guvohi bo‘lamiz. Asar matnidagi oyatlar masalasida M. Siddiq o‘ziga xos yo‘l tutganligi kuzatildi. Ya‘ni olim oyati Karimadan so‘ng qavs ichida iqtibos keltirilgan sura nomi hamda oyatning tartib raqamini keltiradi. So‘ng uning ostida kvadrat qavs ichida mazkur oyatning forsiy ma‘no tarjimasini joylashtiradi. Bu esa o‘quvchiga Qur‘oni Karimdagi mazkur oyatning tafsirini qidirishga ketadigan vaqtini tejash imkonini beradi va shu yerning

o'zida uning ma'nosi bilan tanishishga sharoit yaratadi. O'z navbatida bunday yechim tarjimonning tarjima-dagi yutuqlaridan biridir. Olim asliyatda berilgan she'rlarni avval turkiy tildagisini fors alifbosida keltiradi. She'rlarni ba'zi o'rinlarda nazmiy ko'rinishda, boshqa o'rinlarda esa nasriy holda tarjima qiladi. E'tiborli jihati, olim Alisher Navoiy o'zining Forsiy devonida ba'zan forscha maqollardan foydalanganligiga ham diqqat qaratgan.

14. Eronda "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining ilk va bugungi kunga qadar yagona bo'lib turgan tarjimasi 1950-yillarda T. Ganjaviy tomonidan amalga oshirilgan. Ganjaviyning tarjimasida ba'zi bir qisqartirilgan o'rinlar mavjud bo'lib, M.Siddiq o'zining nashrida mazkur qisqartirishlarni o'zi foydalangan nusxadan fors tiliga o'girib, Turxonning tarjimasidan ajratib ko'rsatish maqsadida kvadrat qavs [] ichida keltiradi. Shuningdek, turkiy va forsiy she'rlar orasida ham ba'zi ixtiloflar mavjud bo'lganligi, biroq ularning matniga o'zgartirishlar kiritmagani oydinlashdi.

15. "Muhokamat ul-lug'atayn" asari tarjimasining asliyatdan farq qiladigan jihatlaridan biri bu M. Siddiq tomonidan asar qismlarining ma'no-mazmunidan kelib chiqib nomlaganidir. Turxon Ganjaviy tomonidan amalga oshirilgan tarjimini nashrga tayyorlagan M. Siddiq fors kitobxonini o'qish davomida tushinishi qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan so'z, ibora va duolarni kitob oxirida izohlagan va bu ishi bilan tarjima qiymatini yanada oshirgan.

16. Eron navoiyshunoslari orasida "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga ikki xil yondashuv kuzatiladi. Birinchi yondashuv tarafdorlaridan bo'lgan Asg'ar Dilbaripur, Muhammadzoda Siddiq kabi navoiyshunos olimlar Alisher Navoiyning mazkur asarda keltirgan barcha da'volarini o'rinli va to'g'ri deya baholagan bo'lsalar, ikkinchi yondashuv tarafdorlari sanalgan Zabihulloh Safo, Amir Ne'mati Limoiy kabi olimlar shoirning barcha da'volarini xom va tekshirilmagan tarzda bayon qilingan deya ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, Eron navoiyshunosligi buyuk mutafakkirning hayotlik davridayoq boshlangan bo'lib, bugungi kunga qadar uch yirik bosqichdan iborat tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Bu bosqichlar Alisher Navoiy ijodini tarjima, tahlil va matnshunoslik yo'nalishlarida amalga oshirgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И  
ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**ИЗЗАТИЛЛАЕВ ПАРВИЗ ИНОЯТИЛЛАЕВИЧ**

**НАВОИВЕДЕНИЕ ИРАНА: ИССЛЕДОВАНИЕ, ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И  
ПЕРЕВОД**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительная лингвистика и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Fil525.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекском, русском, английском (резюме) языках на веб-странице Научного совета (<http://www.tsuull.uz>) и в информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Сирожиддинов Шухрат Самариддинович**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Мусурмонов Эркин Раббимович**  
доктор филологических наук, профессор

**Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Государственный музей литературы имени Алишера Навои АН УзР**

Защита диссертации состоится на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои «» \_\_ 2023 года в \_\_ часов (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, дом 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (<http://www.tsuull.uz>).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за номером \_\_\_\_). Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, дом 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (<http://www.tsuull.uz>).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года  
(Реестр протокола №\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**Н.З.Нормуродова**  
Председатель разового Научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор филологических наук, доцент

**К.У.Пардаев**  
Ученый секретарь разового Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, доцент

**Д.Р.Юсупова**  
Председатель разового Научного семинара  
при Научном совете по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении изучение межнациональных литературных отношений в аспекте взаимодействия является одним из актуальных направлений в эпоху глобализации XXI века. Безусловно, популярность того или иного народа среди других напрямую связана, прежде всего, с внедрением художественной литературы этого народа посредством перевода в культурный пласт разных народов. Интерес к узбекской литературе и творчеству ее великих деятелей в научных кругах мусульманского Востока имеет давнюю историю. В частности, жизнь и творчество великого поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои, его научно-литературное наследие на протяжении веков находились под пристальным вниманием востоковедов Ирана, Турции, Азербайджана, Индии, России, Венгрии, Германии, Англии. Исследование вопроса об изучении творчества Навои за рубежом позволяет определить вклад великого поэта в мировую культуру и его достойное место в человеческой цивилизации. В том числе, изучение произведений Алишера Навои в Иране и исследование художественного уровня персидских переводов определяют необходимость и актуальность темы.

В мировом литературоведении направление «навоиведение» окончательно сформировалось в конце XIX века. Исследовательские работы, проведенные в российской школе навоиведения, в следующем столетии еще больше повысили интерес к жизни и творчеству Алишера Навои в Западной Европе. В странах Востока, в частности, в Узбекистане и других тюркоязычных странах, началось широкое изучение творчества Навои. Наряду с этим в таких странах, как Таджикистан и Иран также были созданы школы навоиведения. Сегодня Узбекистан признан мировым центром навоиведения. Особое научное направление по изучению жизни и творчества Алишера Навои, сформировавшееся в 20-е годы XX века, к настоящему времени достигло высокого уровня развития. Научно-литературное наследие великого поэта, полностью собранное узбекскими навоиоведами, служит источником для исследований, проводимых в международном масштабе. Вместе с тем, вопрос изучения произведений Навои узбекскими учеными в зарубежных странах приобретает важное значение для определения этапов становления и развития литературных отношений, а также уровня влияния Алишера Навои на национальную литературу. Следует особо отметить, что проблема изучения творчества Алишера Навои в Иране и перевода его произведений на персидский язык комплексно не изучена. Между тем, со второй половины XX века и до сегодняшнего времени в Иране навоиведение сформировалась как отдельная область исследований и ступила на своеобразный путь развития. С этой точки зрения изучение иранской школы навоиведения, проведение сравнительного исследования осуществленных переводов является одной из актуальных задач, стоящих перед узбекским навоиведением.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года №УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», постановлениях от 24 мая 2017 года №ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», от 19 октября 2020 года №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», от 04 февраля 2021 года №ПП-4977 «О создании Международного общественного фонда имени Алишера Навои», а также в ряде других нормативных правовых актах, относящихся к этой сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Следует отметить, что интерес к изучению жизни и творчества Алишера Навои в зарубежных странах значительно возрос с начала XX века.

Заслуживают внимания труды таких русских ученых, как Е.Э.Бертельс<sup>37</sup>, В.В.Бартольд<sup>38</sup>, А.Н.Кононов<sup>39</sup>, А.К.Боровков<sup>40</sup>, А.А.Семёнов<sup>41</sup>, А.Н.Болдырев<sup>42</sup>, А.Ю.Якубовский<sup>43</sup>, Н.И.Конрад<sup>44</sup>, М.Никитский<sup>45</sup>, В.М.Жирмунский<sup>46</sup> о жизни и творчестве Алишера Навои. Большой вклад в изучение творчества Алишера Навои внесли таджикские ученые, как С.Айни<sup>47</sup>,

---

<sup>37</sup> Бертельс Е.Э. Навои. Избранные труды. Навои и Джамии. – М.: Наука, 1965.

<sup>38</sup> Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин. в XI томах. – М.: Наука, 1964. Т. II. Ч.2.

<sup>39</sup> Возлюбленный сердце (Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб)/ Сводный текст А. Н. Кононова; отв. ред. С. Е. Малов. – М.-Л., 1948.

<sup>40</sup> Боровков А.К. Изучение жизни и творчество Алишера Навои. Сб. Родоначальник узбекской литературы. Ташкент, 1940; Навои и Джамии в народном предании. Известия АН ССР. Отделение литературы и языка, 1947, том. VI, выпуск 6.

